

XX ASR BOSHLARIDA UZOQ SHARQDAGI YAPONIYA TASHQI SIYOSATI(KOREYA YARIMOROLI MISOLIDA)

Ergashev Ziyodullo
TKTI Shahrisabz filiali
assistent o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6793028>

Annotatsiya: Ilmiy maqolada nafaqat Koreya, Yaponiya va boshqa davlatlar o'rtasidagi munosabatlari balkim Koreya tarixi va tashqi siyosatdagi ro'li va ichki siyosiy hayoti, Yaponiyaning Koreya yarimorolidagi mustamlaka davri ko'rib chiqiladi. Bilamizki, Koreya tarixida "qora o'tmish" sifatida baholanadigan mustamlaka davri mavjud va bu yaponlarning Koreyada olib borgan fashistik siyosati sifatida ham baholanadi.

Kalit so'zlar: Yaponiya, Korea, modernizatsiya, tarixi, siyosiy hayoti, mustamlaka

Annotation: The scholarly article discusses not only the relations between Korea, Japan and other countries, but also Korean history and role in foreign policy and domestic political life, as well as Japan's colonial period on the Korean Peninsula. We know that there is a colonial period in Korean history that is considered a "black past" and that is also seen as a Japanese fascist policy in Korea.

Keywords: Japan, Korea, modernization, history, political life, colonialism

Bilamizki, Koreya tarixida "qora o'tmish" sifatida baholanadigan mustamlaka davri mavjud va bu yaponlarning Koreyada olib borgan fashistik siyosati sifatida ham baholanadi. Bu davr 1910-1945-yillarni o'z ichiga olgan yapon mustamlakasi davridir.¹

Dastlab Yaponiya Koreyani bosib olishni XX asr 2-yarmidan boshlab yubordi. 1876-yil Koreya va Yaponiya o'rtasida Kanxva shartnomasi imzolandi, va ushbu shartnomaga ko'ra, Yaponiya fuqarolari eksterritoriallik huquqini olishdi, yaponlar uchun Pusan, Vonsan va Inchxon portlari ochildi. Bundan tashqari, yapon tovarlari uchun bojxona to'lovlari bekor qilindi. Keyingi 10-yillikda yaponiya mavqeyi yanada o'sdi, birgina 1884-yil kapsin g'alayoni markazida ham yaponparast a'zoldardan tuzilgan bo'lib, ular Koreya siyosiy hayotida Xitoy ustun bo'lishiga qarshi harakat olib borgan.²

Yapon-xitoy urushidan keyin yaponlar qo'shinlarini Koreya hududidan olib chiqib ketdi, lekin endi e'tiborlarini Koreyani egallash uchun koreys

¹Jeon Sang-Sook. The Characteristics of Japanese colonial rule in Korea. The journal of Northeast Asian history, vol.8 no.1(summer 2011) p.39

² Хан Ёнъю. История Кореи: новый взгляд. М., 2010. С. 404.

siyosatchilari va amaldorlaridan foydalanishga qaratdilar. Ko'p koreys rahnamolari Koreyaning Yaponiya mustamlakasiga aylanishini istashardi.³Yaponlarning Koreyani qo'l ostiga olishiga sababchi bo'lgan voqealardan biri burus –yapon urushidir. 1904-yil 8-yanvarda yapon armiyasi o'z harbiy harakatlarini Inchxonda,Kunsanda va Vonsanda boshladi. Ular 9-yanvarda Seulga yetib kelishdi, 23-fevralda Koreya tashqi ishlar vaziri Li Jiyon va Yaponiya elchisi Xayasi Gonsuki Koreyaga boshqa chet davlatlardan hujum bo'lsa, Yaponiya Koreyani himoya qilishi haqida qo'shma protokol imzoladilar. Shu yilning 22-avgustida Yaponiya koreys hukumatini navbatdagi kelishuvni imzolashga erishdi, unga ko'ra Koreyaning barcha moliyaviy ishlarida Yaponiya maslahatchi sifatida faoliyat yuritadigan bo'ldi. Bu kelishuv natijasida Koreya o'z tashqi ishlarini ham Yaponiyaga topshirdi.⁴1904-yil dekabridan 1905-yilning kuzigacha Yaponiya moliyaviy maslahatchisi bo'lgan Megata Tanetaro pul islohoti o'tkazdi va natijada, Koreya moliyaviy masalalari yaponlarning “Birinchii bank” (“Dayito ginko”)i nazorat qiladigan bo'ldi.⁵

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'p koreys fuqarolari Yaponiyaning Koreyaga kirib kelishiga qo'shilishardi. Ularning fikricha, Yaponiya yordami bilan Koreya ertami, kechmi zamonaviylashadi deb hisoblardilar. Bunday tarafdorlarni o'sha davr koreys tarixchilari tomonidan “davlatning sotilgan qullari”deb nomlashadi.⁶ 1904-yil 18-avgustda “Islohotlar jamiyati”(“Yusinxve”) ta'sis etildi va tez orada nominilddjinxve (koreyscha “Birlik harakati jamiyati”) deb o'zgartirdi. Uning asoschilari sobiq mustaqillik jamiyati tarafdorlari Yun Sibyon va Yu Xakchu va shuningdek, qirolicha Min davrida ta'qibga uchragan va Yaponiyaga qochgan qochoq Son Byonchun (1852-1925)lar ham bor edi.⁷ Bu tashkilotning asosiy maqsadi Koreyani modernizatsiya qilish va uni Yaponiya anneksiyasi bo'lishini qo'llab –quvvatlashadi.⁸ Ildjinxve tashkiloti tarkibida turli xil tabaqaga mansub 100 ming atrofida odamni birlashtirgan edi. Ildjinxve tashkiloti tufayli Yaponiya va Koreya o'rtasida “Koreyadagi pochta,telegraf va telefon tarmoqlarini Yaponiya tasarrufiga olish to'g'risida”gi kelishuv imzolanishiga turtki bo'ldi. 1905-yil 22-avgustdagi shartnomaga ko'ra, Yaponiya endi Koreya hududidagi suv havza va tarmoqlarini ham o'z nazoratiga oldi.⁹

³ К. В. Иванов. Исторические проблемы Кореи периода 1905-1945 гг. и их современное наследие колониальная модернизация, ассимиляция корейцев и проблема “прояпонских деятелей”. Иркутск., 2014. - С. 35

⁴Korea: treatiesandagreements. Washington., 1921.- P. 37.

⁵ Курбанов С.О. "История Кореи: от древности до начала XXI века"- СПб.,2009. – С.229

⁶ Курбанов С.О. "История Кореи: от древности до начала XXI века"- СПб.,2009. – С.230

⁷Курбанов С.О. "История Кореи: от древности до начала XXI века"- СПб.,2009. – С.231

⁸Korea: treatiesandagreements. Washington., 1921.P. 44-45.

⁹Хан Ёнъю. История Кореи: новый взгляд. М., 2010. - С. 439.

Yaponiya Koreyada o'z ishtirokini mustahkamlash uchun AQSHdan qo'llab-quvvatlashini olish maqsadida, ya'ni Osiyo-Tinch okeani shimoli hududidagi yagona mintaq va aynan shu holatda Sharqiy Osiyoda potensial kuchiga ta'sir ko'rsata oladigan mintaq harakat qildi. Shuning uchun 1905-yil 29-iyulda Yaponiya vaziri Katsuri va AQSH Prezidentining harbiy ishlari bo'yicha kotibi Vilyam Taft o'rtasida bo'lgan sirli uchrashuvga asosan, AQSH Koreyaga bo'lgan qiziqishlaridan voz kechdi va Yaponiya Filippinda AQSH nazoratini tan oldi.¹⁰

1904-1905-yillarda bo'lib o'tgan rus yapon urushidan keyin imzolangan Portsmouth shartnomasiga ko'ra Yaponiya Koreyani anneksiya qilish "huquqi"ni qo'lga kiritdi. 1905-yilning oxirida borgan Yaponiya Koreyaning transport, pochta va telegrafini qo'lga olib bo'lgan edi.¹¹ Yapon-xitoy urushi va rus-yapon urushidagi g'alabalar yaponlarga Uzoq Sharqda yagona hukmdor bo'lishiga zamin yaratdi.

Yaponiya va Koreya davlati o'rtasida imzolangan 1905-yil 17-noyabr shartnomasi tarixiy adabiyotlarda turli xil nomlarda ataladi: "Koreyava Yaponiya o'rtasidagi birdamlik haqida 2- shartnoma", "5 qonun(yil) Ilsa dan iborat shartnoma" yoki "Protektoriat" nomlari bilan atalgan. Ushbu shartnomani Qirol Kojon, vazirlar mahkamasi rahbari Xan Gyusol(?- 1930) va yana 2 vazir imzolashni istamadilar. Bir necha bor Ito Xirobumi(1841-1909) Kojonga imzolash haqida gapirganda, Qirol o'zini "yaxshi his etmayotganligi"ni aytadi. Yaponiyalik harbiylar bilan kelgan Ito Xirobumi 1905-yil 17-noyabrda qirollik saroyida koreys vazirligining 5 a'zosi va boshqa a'zolar bilan Koreyani Yaponiya protektorati bo'lishi haqidagi shartnomani imzolashga majbur qildi. "5 o'zgarish(yillari) ilsa"ni ichida tashqi ishlar vaziri Pak Chesun (1858-1916) va ta'lim vaziri Li Vanyon (1858-1926)lar "ruslarga qarashli bo'lgan guruh"ga hech qachon kirmagan.

Shunday qilib, 1905-yilgi shartnoma Koreyada Yaponiya hukmronligini o'rnatdi bu 1907-yilgacha davom etdi. Shartnomaga ko'ra, Koreya Yaponiyaning Koreyadagi asosiy boshqaruv organi - "General Rezidentligi boshqaruvi" (Txongambu) qo'lga o'tdi. Avval bu tuzilma Koreyaning tashqi aloqalarini nazorat qilgan. Lekin Yapon imperatorining 1905-yil 20-dekabrda farmoniga muvofiq, general rezidentlikning funksiyalari kengaytirildi, va unga Koreyada tartib o'rnatish uchun yapon harbiy kuchlaridan foydalanish, koreys hukumatiga "maslahatlar" berish va shuningdek, buyruqlar va foydalanish uchun majburiyatlar qo'llash huquqi berildi.

Qisqacha xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Koreys xalqi yapon qo'lostida 35 yil davomida yashagan bo'lsalarda, ular yaponlarga qaram bo'lishni istamadilar va

¹⁰ Курбанов С.О. "История Кореи: от древности до начала XXI века"- СПб., 2009. – С.231

¹¹ Сувилов Н.И. Корея. Страна и её история последнего времени. СПб, 1904. - С. 98-100.

II jahon urushi sababli 1945-yilda Koreya yapon mustamlakasidan to'liq ozod etildi. Ushbu yillarda yaponlar Koreyani to'liq mustamlaka qilishga harakat olibborgan bo'lsalar-da, 1919-yil 1-martdagi qarshilik harakati yaponlarning Koreyaga nisbatan qattiq qo'llik siyosatini o'zgartirishga majbur qildi. "Madaniy boshqaruv" siyosati tufayli, koreys xalqi biroz bo'lsa-da o'z huquqlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ldilar. Qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, yaponlarning koreyaning o'z mustamlakasiga olishi bu o'sha davr taqozosi edi va koreys xalqi ga anchayin zarar yetkazgan bo'lsa-da, ijobiy jihatlarini ham rad etib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jeon Sang-Sook. The Characteristics of Japanese colonial rule in Korea. The journal of Northeast Asian history, vol.8 no.1(summer 2011).
2. Хан Ёнъу. История Кореи: новый взгляд. М., 2010.
3. К. В. Иванов. Исторические проблемы Кореи периода 1905-1945 гг. и их современное наследие колониальная модернизация, ассимиляция корейцев и проблема "прояпонских деятелей". Иркутск., 2014.
4. Korea: treaties and agreements. Washington., 1921.
5. Курбанов С.О. "История Кореи: от древности до начала XXI века"- СПб., 2009. -
6. Суви́ров Н.И. Коре́я. Страна и её история последнего времени. СПб, 1904. -